

SPORTNING HAR BIR TURIDA O‘ZINI NAZORAT QILISH SAMARASI

Davronova Odinaxon Ikromjonovna
Andijon viloyati Shaxrixon tumanidagi
29-umumiy o’rta ta’lim maktabining
Boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mashg’ulotning makrotsikli davomida sportchi vazni shug’ullanganlik dinamikasiga bog’liq holda o’zgaradi. Bir so’z bilan aytganda sport turida o’zini-o’zi nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir insonga salomatlikdan ko’ra muhim ne’mat yo’qdir. Uni vaqtida qadrlab, sog’lom turmush tarzida yashash joizdir.

Kalit so’zlar: intellektual, ma’naviy, sog’lom-aql, g’oya, taraqqiyot, tarbiya

Abstract: During the training macrocycle, the athlete's weight changes depending on the dynamics of training. In a word, it is desirable to have self-control in sports. It is worth noting that there is no blessing more important to every person than health. It is permissible to appreciate it in time and live a healthy lifestyle.

Key words: intellectual, spiritual, common sense, idea, development, education

Аннотация: В ходе тренировочного макроцикла вес спортсмена изменяется в зависимости от динамики тренировки. Словом, в спорте желательно иметь самообладание. Стоит отметить, что нет блага важнее для каждого человека, чем здоровье. Позволительно вовремя это оценить и вести здоровый образ жизни.

Ключевые слова: интеллектуальное, духовное, здравый смысл, идея, развитие, образование.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”- deb ta’kidlab o’tganlar. Har qanday poydevor mustahkamligi biz uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Sport insonlar hayotida asosiy omildir. Xalqimiz ham bejiz aytmaganidek; sog’-tanda, sog’lom-aql, sog’lik-tuman boyluk. Har tomonlama yetuk hamda farzandlarimiz ertangi kunimiz bo’lganligi uchun, barkamol shaxs bo’lishdek tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo’lib kelgan. Bu g’oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish haqida qayg’urmagan xalqning, millatning kelajagi yo’q. Shu tariqa ta’limning jismoniy tarbiyasida o’zini nazorat qilish – sport bilan shug’ullanish ta’sirida, sportchining doimiy ravishda o’z sog’ligi holati va jismoniy rivojlanishi, undagi o’zgarishlarni kuzatishi. O’zini nazorat qilish shifokor nazorati o’rnini bosa olmaydi. Faqatgina unga qo’shimcha bo’ladi. O’zini nazorat qilish sportchiga mashg’ulot samarasini baholashga, o’z sog’ligi holatini kuzatishga, shaxsiy gigiyena qoidalarini, umumiy va sport rejimini bajarishga imkon beradi.

Doimiy olib boriladigan nazorat ma'lumotlari, murabbiy va shifokorga o‘tkazilayotgan mashg‘ulot usuliyatini, sog‘liq holati va organizmining funktsional holatidagi siljishlarni tahlil qilishga ko‘mak beradi. Shuning uchun murabbiy, o‘qituvchi va shifokor sportchiga o‘zini nazorat qilish bilimlarini singdirishi, mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri amalga oshirish va sport natijalarini yaxshilash uchun o‘zini doimiy tarzda nazorat qilish zarurligini tushuntirishlari kerak. Tana tuzilishi va jismoniy tayyorgarlikdagi o‘zgarishlarni doimiy mustaqil kuzatishlarini olib borish juda muhim. O‘zini nazorat qilish oddiy, hammaga tushunarli nazorat usullaridan va sub'ektiv ko‘rsatkichlar hisobidan (o‘zini his qilishi, uyqu, ishtaha, ishga layoqat) va boshqa ob'ektiv izlanishlardan (vazn, tomir urishi, bo‘y) tashkil topadi. O‘zini nazorat qilish kundaligi uchun daftar kerak bo‘ladi va uni o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichlari va sanalar bo‘yicha taqsimlab chizish kerak.

O‘zini yaxshi his qilish sport bilan shug‘ullanishning odam organizmiga ta'sirining muhim ko‘rsatkichidir. Odatda doimiy va to‘g‘ri o‘tkaziladigan mashg‘ulotda sportchining o‘zini his qilishi yaxshi bo‘ladi: u tetik, hayotdan xursand, o‘qish, ishlash, shug‘ullanish xohishiga to‘lgan, yuqori ishga layoqatli bo‘ladi. O‘zini his qilish butun organizm faoliyati va holatini, asosiy tarzda asab tizimi holatini namoyon qiladi. O‘zini nazorat qilish kundaligida o‘zini yaxshi, qoniqarli, yomon his qilish kabi holatlar belgilanadi. O‘zini his qilishni jismoniy holat ko‘rsatkichi sifatida sportchi kayfiyatini hisobga olgan holda baholash kerak. O‘zini nazorat qilishda ishga layoqatning quyidagi umumiy bahosi beriladi: yaxshi, normal, pasaygan. Uyqu vaqtida odam o‘z kuchlarini va ayniqsa markaziy asab tizimi funktsiyasini tiklaydi. Sog‘liq holatining hali boshqa belgilarida namoyon bo‘lmagan kichik o‘zgarishlari, darhol uyquga borib taqaladi.

Musobaqalarga qatnashish va shug‘ullanish hohishi jismoniy mashqlar, ularga xursandchilikni olib keluvchi sog‘lom va ayniqsa yosh odamlar uchun tegishli. Agar sportchi musobaqalarga qatnashish va shug‘ullanish xohishini his qilmasa, bu charchash yoki ko‘p shug‘ullanib yuborganlikning boshlang‘ich fazasidan darak beradi. Sport bilan shug‘ullanish xohishi “katta”, “bor”, “yo‘q” so‘zlari bilan belgilanadi. O‘zini nazorat qilish kundaligining "Mashg‘ulot mazmuni va u qanday ta'sir qilyapti" bo‘limida mashg‘ulot asosiy qismlarining davomiyliigi belgilanadi. Bunda sportchiga mashg‘ulot qanday ta'sir etganligi ko‘rsatiladi: yaxshi, qoniqarli, og‘ir. Yurak- qon tomir tizi mi faoliyatini tekshirishning eng oddiy va keng tarqalgan usuli tomir urishini tekshirishdir.

Tomir urishini tekshirish hech qanday qiyinchiliklar olib kelmaydi. Tomir urish chastotasi – muhim ob'ektiv ko‘rsatkich. Hisoblash vaqtida ritmni o‘zgartirmagan holda, normal nafas olishga urinish kerak. Sportchi vaznini kuzatish o‘zini nazorat qilishning muhim elementi hisoblanadi. Mashg‘ulotning makrotsikli davomida sportchi vazni shug‘ullanganlik dinamikasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Bir so‘z bilan aytganda sport turida o‘zini-o‘zi nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir insonga salomatlikdan ko‘ra muhim ne‘mat yo‘qdir. Uni vaqtida qadirlab, sog‘lom turmush tarzida yashash joizdir.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent:O‘zbekiston, 2016. – B.14
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-4947-son Farmoni // Xalq so‘zi. 2017, 8 fevral. №28
5. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya muammolari. M.: 1973.
6. Talabalarning aqliy rivojlanishini diagnostika qilish muammolari. Ed. Z.M. Qalmikova. M.: 1975, b. 17-18.
7. Davydov V.V. Ta'limni rivojlantirish muammolari. Moskva: Pedagogika, 1986. 240 b.
8. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-184-185-b
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yaxshilik_va_yomonlik
10. <https://web.telegram.org/156e7ea2-050b-48e8-a04b-94af61e09e90>